

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Isoqova Charos Farxod qizi

Mirobod tumani 66-DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214934>

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasida" ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim. Uzlaksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum konsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur xolatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlar tog'risida qimmatli fikrlar bilfirganlar. Bular to'rt xil manbalarda uchraydi: Ularning biri – xalq ijodiyoti rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; Ikkinchisi – mahsus ijodkor kishilar muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan og'it va nasihatlar, hikoyatlardadir. Uchinchisi – qomusiy, O'rta Osiyo mutaffakirlari ilmiy – nazariy qarashlari; to'rtinchisi – turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya'ni badiiy asarlardadir. Xozirgi kunda ham Bola shaxsi uning yosh davrlari psixologiyasi, uning ruhiyati, dunyoqarashi ta'lim va tarbiya olishi. Kelajakda yetuk kadr va muitahasis bo'lib yetishishi, ajdodlarga mos avlod bo'lishi masalasi xalqimiz oldida turgan muhim, dolzarb masala sifatida rivojlanib kelmoqdadir. Oldimizdagi dolzarb masala sifatida turibdi. Mamlakatimizda mustaqil, xuquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson moxiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy barkamol,

intelektual , aqliy-amaliy kadrlarni yaratish uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini qaytadan rekonstruksiya qilishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ishlar o'zining amaliy va nazariy natijasini ham topayotgani xech kimga sir emas. Yangidan yangi qonunlar hamda Prezident farmonlari ham bu sohani naqadar tubdan o'zgartirishimiz kerakligini esimizga solmoqda, yangiliklar yaratilmoqda. Jumladan, 2012-yilning 10-dekabr sanasida ' Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida " qaror qabul qilingach yanada bu sohaga e'tibor yanada mustahkamlandi. Yanada ko'proq e'tibor berila boshlandi. Yangidan yangi dasturlar amaliyotga joriy etila boshlandi. Unga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti " Chet tillar bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar" amaliyotga joriy etildi. Aytib o'tish lozimki , yurtimizda yoshlarning chet tillarini mukammal o'rganishi uchun yetarlicha shart-sharoit yaratishda ushbu qaror katta ahamiyat kasb etdi. Xabaringiz bor so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda , xorijiy tillarni o'rgatishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga chet tilini o'rgatishimiz uchun ko'plab ishlar, dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimini barcha bosqichlarida , jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xam chet tillarini o'zlashtirish darajasini oshirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan " Tinglab tushunish"(Listening), "O'qish"(Reading) , "Yozish" (Writing)"Gapirish"(Speaking) ko'nikmalari ta'limning har qaysi bosqichida joriy qilinganligiligi misol qilib keltira olamiz. Ushbu dasyur asosida ta'lim-tarbiya berish maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimimizda bollarning tinglab tushunish va eshitish orqali o'rganishlari uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratib berilgandir. Kichik yoshdagi bolalarning harf tanimasligi va o'qiy olmasligini hisobga olgan holda ular uchun mahsus chet tilini oson o'rganish uslublari ishlab chiqildi. Ikkinchidan hali maktabga chiqmagan, harf tanimaydigan bolalar uchun Maktabgacha ta'lim tizimida "Ilk qadam" dasturi joriy qilindi. Bunda bolajonlar turli o'yinlar, qo'shiq va she'rlar , ertaklar , multfilmlar orqali chet tilini, jumladan ingliz tilini bemalol o'zlashtirishlari mumkun. Qo'shiq tarzida harflarni yod olishlari, ranglarni ko'rib mahsus ko'rgazmaliqurollar orqali o'rganishlari mumkun. O'yin tarzida o'rganish usuli esa bolalarimizda ham qiziq ham ma'suliyat bilan o'rganishlariga yordam beradi. Uchinchidan Bolalar uchun mahsus yaratilgan dastur orqali ingliz

alifbosini ko`radilar, mashqlar ostidagi qo`shiq orqali yodlab o`rganadilar. Bu jarayon bolalarning chet tilida og`zaki nutq va tinglab tushunish ko`nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi qilib belgilab qo`yilgandir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, maktabgacha ta`lim tizimiga ham juda ham ko`plab e`tibor berganlar. “Bolalar tarbiyasi jarayoniga o`z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go`dakligidan ongi va tafakkuri to`g`rini to`g`ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma`naviyatga ega bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo`ladi”, deb alohida ta`kidladilar muhtaram prezidentimiz. Tadqiqotning dolzarbligi aynan shu yo`nalishda ota-onalar va tarbiyachilarga bog`cha yoshidagi bolalar ongi va shuuridagi bilimlar va dunyoqarashiga uning psixologik rivojlanishiga, shaxs ifatida rivojlanishi jarayonida, erta yoshlarda chet tilini jumladan Ingliz tilini o`rganishning ta`siridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini erta ya`ni 4-6 yosh oralig`ida o`rganishning ta`sirlari haqidadir. Yurtimizda Chet tilini chuqurroq o`rganish uchun, hamda maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivoji uchun yetarli darajada ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga chet tilini o`rganishning ta`sirlari haqida turli tuman ishlar, ilmiy ishlar yangidan yangi dasturlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek “Bizni hamisha o`ylantirib keladigan yana bir masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so`z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog`liq. Bola shaxsining psixologik asoslari ham Jahon va O`zbek psixolog va pedagoglari tomonidan minglab yillardan beri o`rganib kelinmoqda. Jahon psixologiyasidagi ilg`or konsepsiyalar, yondashuvlar, ilmiy psixologik prinsiplar, qonunlar, qoniniyatlar, mexanizmlar; sifatida klassik psixologiyadagi shaxsni o`rganishga haqqoniy va shaxslilik nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning faolligi va tarqqiyot tamoyili hamda psixik hodisalarni tadqiq qilishga kompleks yondashish (B.G.Ananayev), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev) Tizimli yondashish, shaxsning faolligi (B.F.Lomov)lar xizmat qilganlar. Bola shaxsi rivojlanish uchun, kelajagimizni munosib avlodlarga qoldirishimiz uchun albatta biz bollarimizga ular yohligidanoq chet tilini o`rgatishimiz kerak. Uning dunyoqarashi axloqiy va aqliy tarbiyasi, dunyosi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev-O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 14.02.2017-yilda “Maktabgacha ta`lim tizimini isloh qilish va

rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektorda so'zlagan nutqlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev -15.06.2018-yilda "Ijtimoiy Barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqlari.